

**ENERGIYA SAMARADORLIGI VA YASHIL ENERGIYANING IQTISODIY  
SAMARADORLIKNI OSHIRISHDAGI O'RNI**

**Mansurova Madinabonu Baxtiyorovna**

*Geologiya fanlari universiteti talabasi*

**Qo'chqorov Nodirjon Suvanovich**

*( ilmiy rahbar )*

**Annotatsiya.** *Energiya samaradorligi va yashil energiya zamonaviy iqtisodiyotning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, ekologik va iqtisodiy muammolarning yechimida muhim rol o'ynaydi. Energiya resurslaridan oqilona foydalanish va qayta tiklanadigan manbalarga o'tish nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlash, balki iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkonini ham beradi. Ushbu maqolada yashil energiyaning iqtisodiyotga ta'siri va energiya samaradorligini oshirish yo'llari tahlil qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *energiya samaradorligi, yashil energiya, gidroenergiya, biomassa, qayta tiklanadigan manba, quyosh panellar, shamol turbinalar.*

**Аннотация.** *Энергоэффективность и зеленая энергетика являются одними из основных направлений современной экономики и играют важную роль в решении экологических и экономических проблем. Рациональное использование энергоресурсов и переход на возобновляемые источники не только обеспечат экологическую устойчивость, но и повысят экономическую эффективность. В данной статье анализируется влияние зеленой энергетика на экономику и пути повышения энергоэффективности.*

**Ключевые слова:** *энергоэффективность, зеленая энергетика, гидроэнергетика, biomassa, возобновляемые источники, солнечные панели, ветряные турбины.*

**Abstract.** *Energy efficiency and green energy are one of the main directions of the modern economy and play an important role in solving environmental and economic problems. The rational use of energy resources and the transition to renewable sources will not only ensure environmental sustainability, but also increase economic efficiency. This article analyzes the impact of green energy on the economy and ways to improve energy efficiency.*

**Keywords:** *energy efficiency, green energy, hydropower, biomass, renewable resource, solar panels, wind turbines.*

Energiya samaradorligi deganda energiya iste'molini kamaytirish bilan birga, mahsulot yoki xizmat sifatini saqlab qolish tushuniladi. Bu texnologiyalarni optimallashtirish va resurslarni tejash orqali amalga oshiriladi. Yashil energiya esa quyosh, shamol, gidroenergiya va biomassa kabi qayta tiklanadigan manbalardan olinadigan energiyani anglatadi. Ushbu manbalar global miqyosda ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan.

Energiya samaradorligi va yashil energiyalarning bir qancha iqtisodiy foydalari mavjud va ular quyidagilar:

- Xarajatlarini kamaytiradi
- Yangi ish o'rinlarini yaratadi
- Energetik mustaqillikka erishish

Bunda, energiya samaradorligi korxonalar uchun ishlab chiqarish xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi. Masalan, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish orqali elektr energiyasining iste'moli qisqaradi va iqtisodiy tejamkorlik oshadi. Yashil energiya sektori yangi ish o'rinlarini yaratish imkonini beradi. Masalan, quyosh panellarini ishlab chiqarish, shamol turbinalarini o'rnatish va texnik xizmat ko'rsatish sohalari mehnat bozorida yuqori talabga ega. Qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish orqali davlatlar energiya importiga bo'lgan qaramlikni kamaytirishi va energetik mustaqillikka erishishi mumkin. Bu iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlaydi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda ham yashil energiyaga katta e'tibor qaratilmoqda, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-son qaroriga asosan qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish maqsadida:

1. Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Energetika vazirligi va "O'zbekgidroenergo" aksiyadorlik jamiyatining elektr energiyasining qayta tiklanuvchi manbalardan foydalangan holda ishlab chiqarilganini tasdiqlovchi "yashil energiya" sertifikatlari tizimini bosqichma-bosqich:

2023-yil 1-iyuldan boshlab – "O'zbekgidroenergo" aksiyadorlik jamiyati tizimidagi gidroelektr stansiyalarida ishlab chiqarilgan elektr energiyasi uchun;

2023-yil 1-oktabrdan boshlab – quyosh, shamol va gidroelektr stansiyalarida hamda qayta tiklanuvchi boshqa energiya manbalaridan foydalangan holda ishlab chiqarilgan elektr energiyasi uchun joriy etish haqidagi taklifi ma'qullansin.<sup>10</sup>

**"Yashil energiya" sertifikat** qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan ishlab chiqarilgan elektr energiyasini aniqlash va tasdiqlash uchun ishlatiladi. Bu, iqtisodiy jihatdan muhim, chunki qayta tiklanuvchi energiya manbalariga sarmoya kiritishni rag'batlantiradi va karbon izini kamaytirishga yordam beradi. Yuqoridagi qarorda "jiggarnig" iqtisodiyotdan "yashil" iqtisodiyotga o'tish uchun "yashil energiya" sertifikatlari tizimini bosqichma-bosqich joriy qilib, qayta tiklanmaydigan resurslardan qayta tiklanadigan resurslardan foydalanishga o'tishni takidlaydi. Bunga sabab, qayta tiklanmaydigan resurslar, ya'ni, neft, ko'mir, tabiiy gaz, oltin, uran va boshqa manbalar yer yuzida cheklangan bo'lib, unlarni kelajak avlod uchun ham asrash masalalari mavjudligi.

Qo'shimcha ravishda 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 24-maqsadida quyidagilar keltirilgan:

Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash hamda "Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish.

<sup>10</sup> <https://lex.uz/docs/-6464655> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI "Yashil energiya" sertifikatlari tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida

2026-yilga kelib elektr energiyasi ishlab chiqarish ko'rsatkichini qo'shimcha 30 milliard kVt.soatga oshirib, jami 100 milliard kVt.soatga yetkazish.

2026-yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 25 foizga yetkazish evaziga yiliga qariyb 3 milliard kub metr tabiiy gazni tejash.<sup>11</sup>

Yuqoridagi maqsadlarni amalga oshirishning ko'plab foydalari mavjud bo'lib, ular quyidagilar:

- Energiya uzluksizligi sanoatda ishlab chiqarish quvvatini va imkoniyatlarini oshiradi
- Hududlararo energetik tenglikni yuzaga keltiradi, ya'ni qishloq joylashda elektr infratuzilmasi yaxshilanadi
- Elektr energiyasi ishlab chiqarish va taqsimoti bilan bog'liq qo'shimcha ish o'rinlari paydo bo'ladi
- Yiliga 3 milliard kub metr tabiiy gazni tejash hisobiga milliy iqtisodiy foyda
- Tabiiy gaz eksportini oshirish orqali qo'shimcha daromad olish kabi imkoniyatlarni ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, energiya samaradorligi va yashil energiya iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Energiya samaradorligi energiya resurslaridan umumli foydalanishni ta'minlab, xarajatlarni kamaytiradi va raqobatbardoshlikni oshiradi. Yashil energiya manbalari esa atrof-muhitni himoya qilish bilan birga, iqtisodiy o'sish va energiya xavfsizligini mustahkamlaydi. Ular iqtisodiy samaradorlikni oshirishga, yangi ish o'rinlarini yaratishga va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda yordam beradi. Shunday qilib, energiya samaradorligi va yashil energiya o'zaro bog'liq strategiyalar bo'lib, barqaror va rivojlanayotgan iqtisodiyotga olib boradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'HATI:

1. <https://lex.uz/docs/-6464655> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI "Yashil energiya" sertifikatlari tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida
2. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida
3. <https://www.imv.uz/media/prior/Yashil.pdf>
4. Яшил иқтисодиёт: Дарслик. /А.В.Вахабов, Ш.Х.Хажикакиев ва бошқалар. –Тошкент.: "Universitet", 2020. -262 б.

<sup>11</sup> <https://lex.uz/uz/docs/-5841063> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida